



Erkin A'zamning "Piyoda" hikoyasida zamon va inson ziddiyati

Abdurasulova Maftuna

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti Filologiya fakulteti 4-
bosqich talabasi
e-mail: abdurasulovamaftuna734@gmail.com*

Annotasiya: Mazkur maqola Erkin A'zamning "Piyoda" hikoyasi tahliliga va undagi zamon va inson ziddiyatlarini yoritishga bag'ishlangan. Asar qahramoni orqali jamiyatdagi o'zgarishlarga ko'nika olmayotgan, zamonga moslasha olmayotgan inson ruhiyati va ichki kechinmalari ochib beriladi. Tadqiqot davomida hikoyaning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: piyoda, Berdiboy obrazi, qahramon kechinmalari, zamon, g'oya, an'ana, yangilanish, eski va yangi qarashlar

KIRISH

O'zbek adabiyotida jamiyatdagi o'zgarishlar va ularning shaxs hayotiga ta'siri, inson ruhiyati masalasi doimo dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, rivojlanib borayotgan davrda milliy qadriyatlar bilan zamonaviy hayot tarzining to'qnashuvi ko'plab yozuvchilarning diqqat markazida turadi. Shu jihatdan Erkin A'zamning "Piyoda" hikoyasi e'tiborimizni jalb qiladi. Ushbu hikoyada muallif Berdiboy obrazi orqali jamiyatda ro'y berayotgan yangiliklarga ko'nika olmayotgan insonning ruhiy iztiroblari, ichki olami yuksak badiiy mahorat bilan ochib beriladi. Hikoya qahramoni orqali nafaqat bir shaxsning qismati, balki butun bir davr muammosini yoritadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hikoya epik turning kichik hajmga ega bo'lgan janrlaridan biri bo'lib, o'ziga xos imkoniyat va qamrovga, badiiy tasvir vositalariga ega ekanligi bilan pamflet, feleton, ocherk, novelladan farq qiladi. Bu farq birinchi galda asarning yuksak badiiyligida, inson hayotiga oid qisqa voqelikni ko'rimli tarzda ifodalay olishida namoyon bo'ladi. "Kratkiy slovar" da aytilishicha, hikoyada qisqa epizodda inson hayotining eng muhim, tipik ko'rinishi ochib beriladi va bu holat uning butun hayotiga tegishli ko'zgu bo'lib qoladi (masalan, "O'g'ri", Sh. Xolmirzayevning "O'zbek xarakteri").

Norvegiya adabiyotshunosi Xuan Rulfo shunday yozadi: "Mening nazarimda, hikoya romandan ham qiyin va mas'uliyatli janrdir, chunki hikoyada juda katta voqealarni ham lo'nda tarzda bayon etish, o'zingni chegaralab, qisqalikka intilish kerak bo'ladi. Boshqalar 200 sahifada aytmoqchi bo'lganini hikoyachi 5-6, nari borsa 10

sahifaga sig'irishi kerak. Buning uchun yozuvchidan juda katta mahorat talab qilinadi. Hikoyada aniq maqsad qisqa, lo'nda bayon qilinadi. Yozuvchi har qancha intellektual salohiyat egasi bo'lmasin, o'quvchiga o'z hukmini o'tkazishga, ularni o'zi istagandek yashashga majbur qilishga haqqi yo'q. Ijodkor buni anglab yetsa, shuning o'zi katta gap".

Yana bir janr borki, u novella deb atalib, u hikoyaning barcha xususiyatlariga ega, ammo kichikroq, dinamikroq bo'lgan qisqa hikoyaning bir turi hisoblanadi. Novella so'zi italyancha so'zdan olingan bo'lib, "yangilik" degan ma'noga ega. Hotam Umurov "Hikoyaning eng ixcham ko'rinishi novella deb yuritiladi"¹, deya ta'kidlaydi. "Adabiyotshunoslik lug'ati"da hikoya haqida so'z borganda, uning ikki tipi mavjudligi, birinchisida ocherklik (tavsifiy-rivoyaviy), ikkinchisida novellistiklik (konfliktlirivoyaviy) xususiyati ustunligi, bularning birinchisini hikoya, ikkinchisini novella deb farqlash amaliyoti ham mavjudligi ta'kidlanadi.²

NATIJAR VA MUHOKAMA

Erkin A'zamning hikoyalari hozirgi o'zbek adabiyoti taraqqiyotida xalq ruhiyatini badiiy aks ettirishda noyob namunadir. Filologiya fanlari nomzodi Olim Toshboyev aytgandek "Erkin A'zam so'zni his qilgan, uning tarjimai holini biladigan ijodkor! Uning asarlarini cho'kirtikanak gaplar, istehzo-yu kinoyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi." Uning asarlaridagi qahramonlar sodda, xalqchilligi bilan, tilining soddaligi bilan ajralib turadi.

Dastlab, hikoyani mutolaa qilishni boshlashimiz bilan bosh qahramon Berdiboy haqida salbiy tasavvur paydo bo'ladi. Chunki hikoya: "Berdiboy yomon! Berdiboy bemehr. Berdiboy otabezori, otabezori, Berdiboy ukalarini xushlamaydi, ularga yov, ota uyidan ham qochgani qochgan",— degan tasvir bilan boshlanadi. Lekin biz Berdiboyni yomon obraz deya olmaymiz. Hikoyani o'qish davomida uni yomon deya olmasligimizning sababi ochilib boradi. Uning muammosi yomonligida emas, balki asta-sekin o'rnashib borayotgan yangicha turmush tarziga, ya'ni zamonga moslasha olmayotganida edi. U yoshligidan buvisining qo'lida tarbiya topgan va an'anaviy qadriyatlar, eski tarziga sodiq qolgan insondir. Lekin uning bu xarakteri ko'pchilikka, hattoki, ota-onasi- yu uka- singillariga ham xush kelmaydi.

Berdiboy hamiyatli erkak. U eski qadriyatlarni yo'qotishni istamaydi. Shuning uchun ham u singlisini qiz bola boshi bilan Toshkentdek shahri azimga jo'natishga qarshi bo'ladi, undan xavotir oladi. Singlisining boshyalang yurishini xohlamaydi. Nafaqat singlisi, balki jamiyatdagi har qanday ochiq kiyingan qiz-juvon uning g'ashini keltiradi. Ukasi Muzaffarboyning xotini ko'rib, onasiga aytgan gaplari ham fikrimizni tasdiqlaydi: "Kelinlari shu emish! Onasini chetga tortib: "Apa, ayting, — dedi, — boboydi oldida buytib yurmasin!" "Uylama, ulim, boboy qaramaydi." "Qaramasayam." "Anovi arzanda Muzaffari-chi, Muzaffarlari?" "E, Berdiboy-e, qip-qizil chudaksiz-da!" deydi kulib turib. Xotini uyga olib kirib och biqiniga solishning, "aka, to'g'ri aytasan", deyishning o'rniga!

Berdiboy ro'y berayotgan o'zgarishlarning barchasiga Rajab bodi sababchi deb hisoblaydi. Chunki "televizor degan baloni o'sha yaramas topib kelgand-da". Ammo

¹ Umurov X. Adabiyotshunoslik nazariyasi – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti,2004.- B.222

² Qur'onov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati – T.: Akademya nashr,2010. – B 402

Berdiboy qanchalik qattiqqo‘l, jahldor, odamlarni tanqid qilishiga qaramay, ich-ichidan mehrga muhtoj, oilasi bilan bir joyda yashashni orzu qiladi: "Qani edi, aka-ukalar barimiz bir joyda, masalan deylik momomning bog‘ida — dashtda yashasak, bir qo‘ra, bir qo‘rg‘on bo‘lib! Topgan-tutganimizni kechqurun bir qozonga solsak, birga yesak, birga tursak!" Asardagi "ajinalar" sahnasi ham e‘tiborimizni tortadi. Berdiboy ko‘rgan "ajinlar" aslida yoshlar, zamonaviy hayot kechirayotgan insonlardir. Nima uchun ularni bunday deb ataydi? Sababi ular Berdiboy uchun begona, tushunarsiz, hatto, qo‘rqinchli.

Hikoyaning "Piyoda" deb nomlanishining o‘zi chuqur ramziy ma’noga ega. "Piyoda" so‘zi oddiy ma’noda yo‘lovchini bildirsa-da, hikoyada u kengroq mazmuni ifodalashga xizmat qilgan. Berdiboyning yo‘lda mototsikli buzilib qolib, piyoda qolishi tasodifiy hodisa emas. Endi u transportsiz, yelkasida og‘ir yuk bilan yo‘lda yolg‘iz qoldi. Qorong‘ilikda yo‘lini topa olmay sarson bo‘ldi. Bu holat uning hayot yo‘lini ramziy ma’noda ko‘rsatib berishga xizmat qilgan.

Muallif biror tomonni to‘liq yoqlamaydi. Aksincha, u o‘quvchini o‘ylashga majbur qiladi. "Aslida qaysi tomon haq?" "O‘zgarishlar qanchalik zarur?" "An’analar saqlanishi kerakmi yoki yo‘qmi?" kabi savollarga javob topishni o‘quvchiga qoldiradi.

Xulosa qilib aytganda, "Piyoda" hikoyasi inson va zamon o‘rtasidagi murakkab munosabatni badiiy va g‘oyaviy jihatdan chuqur ochib bergan asardir. Muallif ushbu obraz orqali zamon bilan hamnafas bo‘la olmagan insonning fojiaiy qismatini ko‘rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. T.: "Fan", 1978-1979
2. Adabiy tur va janrlar. 3 tomlik. T.: "Fan", 1991
3. D. Quronov va b. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T.: 2010
4. Y. Solijonov. Hozirgi adabiy jarayon. T.: Innovatsiya—Ziyo", 2020
5. E. A‘zam. Ertak bilan xayrlashuv. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2007
6. Umurov X. Adabiyotshunoslik nazariyasi – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq me‘rosi nashriyoti, 2004